
www.kwu.ac.kr

2023

Semestrda Gwangju Ayollar Universitetiga Chet ellik talabalarning ariza topshirishlari uchun qo'llanma



Gvangju Ayollar Universiteti

KWANGJU WOMEN'S UNIVERSITY

2023
Admission Guidelines of
Korean Language Course for
International Student

Mundarija

Koreys tilini o'rgatish kursi haqida qo'llanma

I | Ariza topshirish talablari haqida 4
II | Ta'lim olish muddati 4
III | O'qishga kirish tartibi 4
IV | Qabul hujjatlari 5
V | To'lovlar va Grantlar 6
VI | Yotoqxona 6

Bakalavr darajasi uchun chet ellik talabalarning o'qishga qabul qilinishi haqida qo'llanma.

I | Ariza topshirish huquqi haqida 7
II | Qabul qilish fakulteti haqida 8
III | Fakultetlar haqida ma'lumot 9
IV | Qabul hujjatlari 12
V | O'qishga kirish tartibi 13
VI | To'lovlar va grantlar haqida 13

Magistratura darajasi uchun chet ellik talabalarni qabul qilish qo'llanmasi.

I | Ariza topshirish huquqi haqida 15
II | Qabul qilish bo'limi haqida 15
III | O'qishga kirish tartibi 16
IV | To'lovlar va grantlar haqida 16
V | Mutahassislik haqida 17

[Abituriyentlar uchun ehtiyot choralari] & [Universitet hududi xaritasi] 19

[Aloqa ma'lumotlari] 20

KWANGJU **WOMEN'S** UNIVERSITY





2023-yil Gvangju Ayollar Universiteti

Xalqaro talabalar uchun koreys tilini o’rgatish kursiga qabul qilish bo'yicha qo'llanma



· **Manzil:** Gwangsan–gu, Gwangju, Korea
· **Universitet turi :** 4 yillik xususiy universiteti

Ⅰ Ariza topshirish talablari haqida

Kategoriya	Ariza topshirish uchun shartlar
Koreys tilini o'rgatish kursi	Koreyada yoki xorijda o'rta yoki oliy maktabni tamomlaganlar, yoki tegishli ma'lumotga ega bo'lganlar

Ⅱ Ta’lim olish muddati

Semestr	Muddati	Darslar soati	Eslatma
2023–1–Semestr	2023–yil 6-mart∼12-may(10hafta)	200 soat	· Dam olish kunlari: 5-may · Mustahkamlash kunlari: 15∼16-may
Ta’til 15– maydan 2– iyungacha			
2023–2–Semestr	2023–yil 5-iyun∼11-avgust (10hafta)	200 soat	· Dam olish kunlari: 1 va 6-iyun · Mustahkamlash kunlari: 25∼26-iyul
Ta’til 14– avgustdan 1 sentyabrgacha			
2023–3–Semestr	2023–yil 4-sentyabr∼10-noyabr (10hafta)	200 soat	· Dam olish kunlari: 28∼29-sentyabr, 2-oktyabr, 9 oktyabr · Mustahkamlash kunlari: 13∼16-noyabr
Ta’til 17– noyabrdan 24-noyabrgacha			
2023–4–Semestr	2023–yil 27-noyabr∼ 2024–yil 2-fevral (10hafta)	200 soat	· Dam olish kunlari: 25 dekabr 2024–yil 1-yanvar · Mustahkamlash kunlari: 2024–yil 2∼6-fevral kunlari

Ⅲ O’qishga kirish tartibi

Kategoriya	Hujjatlarni ko’rib chiqish	Intervyu
Koreys tilini o'rgatish kursi	Taqdim etilgan hujjatlar qoniqtiriladimi yoki yo'qmi	Jonli intervyu yoki video intervyu

※ Hujjat va intervyu natijalariga ko'ra, akademik qobiliyati va moliyaviy imkoniyatlari etarli emas deb topilgan abituriyentlar tanlanmaydi..
※ Qabul jarayoni

Hujjatlarni topshirish → Hujjatlarni ko'rib chiqish → Suhbat → To'lovni amalga oshirish → Vizaga topshirish → Koreyaga kelish

Ⅳ Qabul hujjatlari

○ Topshirish shart / △ Faqat tegishli shaxslargina

Raqam	Kategoriya	Topshirish kerak bo'lgan hujjatlar	Qayd
1	Ariza shakli	○	– Asl nusxasini topshirish – Shaklni yuklash (Xalqaro ta'lim instituti Magistratura materiallar bo'limi) – https://globalgate.kwu.ac.kr/index.do → [게시판] 클릭 → [공지사항] 클릭 → [외국인공지사항] 클릭
2	O'quv rejasi	○	
3	O'qish xarajatlarini to'lash haqida yozma xat	○	
4	Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, foydalanish va taqdim etishga ruxsat	○	
5	Eng oxirgi o'quv dargohini tugatganlik(yaqinda tugatishi) haqida hujjat va transkriptsiya	○	– Asl nusxasi va tarjima qilingan hujjatni taqdim etish – Taqdim etilishi kerak bo'lgan barcha hujjatlar, masalan, xorijiy universitetni bitirganligi to'g'risidagi guvohnoma va transkript, notarial tasdiqlangan koreyscha tarjimalari bilan birga taqdim etilishi kerak.
6	Ta'lim ma'lumoti haqidagi hujjatni quydagi holatlarda tan olinadi	○	– Asl nusxasini taqdim etish
7	Passport (Agar Koreya ID kartasi bo'lsa uni ham topshirish kerak)	○	– Nusxasini taqdim etish
8	Ota–onasining passport nusxasi va tarjima qilingan hujjatlar	○	– Nusxasini taqdim etish
9	Ota–onasining ish joyidan ishlayapti degan hujjat va yillik daromadi ko'rsatilgan hujjat	○	– Asl nusxasi va tarjima qilingan hujjatni taqdim etish
10	Bank hisobi haqida hujjat	○	– Asl nusxasini taqdim etish/ Hujjatlar elchixonaga orqali topshirilsa bank hisobi haqidagi hujjatning asl nusxasini elchixonaga topshiriladi, va bank yana 1 ta asl nusxasini taqdim qilmasa universitetga hujjatning nusxasini topshirish kerak – D4 Viza: D4 viza shaxslar uchun hisob raqami miqdori o'rtacha $9, 000 bo'lib, D2 viza shaxslar uchun esa hisob raqami miqdori o'rtacha $18,000 bo'lishi kerak ※ Biroq, Vetnamliklar faqat Woori Bank hisob raqami haqidagi hujjatni topshrishi kerak – Koreyada istiqomat qiluvchi D4 vizasiga ega bo'lmagan arizachilar topshirishlari shart emas.

11	Ota-onasi bilan qarindoshlik aloqasini isbotlovchi hujjat (Guvohnoma)	△	– Oilani ro'yxatga olish kitobi mavjud bo'lsa, oilaviy munosabatlar notarial tasdiqlangan hujjatlar taqdim etilishi kerak(Agar siz ota–onangiz bilan bir uyda yashamasangiz) – Ota-onalar ajrashgan taqdirda, oilaviy munosabatlar to'g'risidagi guvohnoma va ajralish to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasini taqdim etish – Agar ota-ona vafot etgan bo'lsa, o'lim to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasini taqdim eting
12	Rasm	O	– 3 X 4cm (oq rangli fon)

※ Zarur bo'lganda qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.
※ Asosan, barcha hujjatlarning asl nusxalari taqdim etilishi kerak, ammo muqarrar sabablarga ko'ra nusxalari topshirilishi mumkin. Taqqoslash uchun asl nusxani olib kelishingiz yoki o'tgandan keyin asl nusxasini topshirishingiz kerak (asl nusxasi tekshirilgandan keyin qaytarilib beriladi.)

Ⅴ To'lovlar va Grantlar

1. To'lov

Kategoriya	Qabul to'lovi	Korey tili o'qish kursi (1,200,000von*4 semestr)	Kitob to'lovi (1–semestr)	Sug'urta (1yil)	Jami
Miqdor	50,000von	4,800,000von	63,000von	110,000von	5,023,000von

※ Sug'urta to'lovi o'zgarishi mumkin va majburiydir.
※ O'qishga kirish sanasidan olti oy o'tgach, Milliy sog'liq sug'urtasi obunasi bo'yicha sug'urta to'lovlarni individual to'lash kerak.
※ Agar sug'urta to'lovii to'lanmagan bo'lsa, vizani uzaytirish mumkin emas.

2. Grantlar

A. Qabul qilingandan keyin birinchi semestrda 70 yoki undan yuqori baholar uchun kishi boshiga 200 000 von.

B. TOPIK (Koreys tilini bilish darajasi imtihoni) darajasidagi TOPIK afzallik granti.

Ⅵ Yotoqxona

kategoriya	Yotoqxona to'lovi	Boshqa punktlar
2 kishilik	1,008,000von/ 21hafta	○ O'zingizning ko'rpangiz va yostiqingizni tayyorlash – Universitetdan ko'rpa va yastiqni so'rash mumkin, ammo qo'shimcha xarajatlar kelib chiqadi ○ Ovqatlanish yotoqxona to'loviga kirmaydi – Ovqat chiptasini alohida sotib olinishi kerak
4 kishili4	609,000von/ 21hafta	

※ To'lov miqdori yotoqxona qoidalariga yoki ta'til paytida yashash muddatiga qarab o'zgarishi mumkin.

2023-yil Gvangju Ayollar Universiteti

Xalqaro talabalar uchun bakalavrga qabul qilish bo'yicha qo'llanma



I Ariza topshirish huquqi haqida

Kategoriya	Ariza topshirish uchun shartlar	
Fuqarolik	Ota onasining ikkalasi ham chet ellik bo'lgan shaxs	
Ta'lim ma'lumoti	1kurs talabasi	Koreyada yoki xorijda o'rta yoki oliy maktabni tamomlagan yoki bitirishi kutilayotganlar
	O'qishni ko'chirmoqchi bo'lgan talaba(3kurs)	Koreyada yoki xorijda 2 yil yoki undan ortiq 4 yillik universitetni tamomlagan (bitirishi kutilayotganlar)yokikollejni tugatgan (bitirishi kutilayotganlar)
Til qobiliyati	1. Koreys tili(TOPIK)dan 3 darajani olgan shaxs 2. Universitet koreys tili (TOPIK) imtihonidan 3 darajani olgan shaxs	

Ⅱ Qabul qilish fakulteti haqida

Yo'nalish	Fakultet		Yangi talaba	O'qishni ko'chirmoqchi bo'lgan talaba	Qabul soni
Gumanitar va ijtimoiy fanlar	1	Aviatsiya xizmatlari fakulteti	○	○	○ ○ kishi
	2	Global ingliz tili ta'limi kafedrasi		○	
		Koreys tili ta'limi kafedrasi		○	
		Xalqaro tadqiqotlar fakulteti –Global ingliz tili ta'limi mutahassisligi	○		
		Xalqaro tadqiqotlar fakulteti –Koreys tili ta'limi mutahassisligi	○		
		Xalqaro tadqiqotlar fakulteti –Menejment mutahassisligi	○		
	3	Jang san'ati va xavfsizlik kafedrasi	○		
	4	Politsiya boshqarmasi fakulteti	○	○	
	5	Ijtimoiy ta'minot fakulteti	○	○	
	6	Maslahat psixologiyasi fakulteti	○	○	
Tabiiy fanlar	7	Go'zallik fanlari fakulteti	○	○	
	8	Sog'liqni saqlash boshqarmasi fakulteti	○	○	
	9	Nutq terapiyasi fakulteti	○	○	
	10	Oziq–ovqat va ovqatlanish fakulteti	○	○	
	11	AI konvergentsiyasi fakulteti	○		
Sana't va sport	12	Ichki arxitektura dizayni fakulteti Ichki dizayn fakulteti	○		
		Ichki dizayn fakulteti		○	
	13	Sport fakulteti	○		

Ⅲ Fakultetlar haqida ma’lumot



Aviatsiya xizmatlari fakulteti

Department of Airline Services

- Maqsad: aviatsiya, mehmonxona va turizm sohalarida xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislarni tayorlash
- **[Aviatsiya]** Aviakompaniyaning salon ekipaji, aeroportning ishlashi,xodimlar
- **[Mehmonxona, turizm]** Dam olish sanoati, shu jumladan mahalliy va xalqaro mehmonxonalar, kurortlar va sayyohlik agentliklari

Xalqaro tadqiqotlar fakuteti

International Studies

- **[Umumiy ma'lumot]** Birinchi semestrda umumiy o'quv dasturini tugatgandan so'ng, ikkinchi semestrdan ma'lum bir mutaxassislikni tanlash mumkin.
- **[Global ingliz tili ta'limi mutahassisligi]** Bolalar uchun ingliz tili ta'limi bo'yicha mutaxassislarni (3 yoshdan 12 yoshgacha) va xalqaro ingliz ta'limi ekspertlarini tayyorlash.
  ※ TESOL (Xalqaro ingliz tili o’qituvchisi sertifikati), CETS–TESOL (Xalqaro bolalar ingliz tili o’qituvchisi sertifikati) va ingliz tilini o’qitish bo’yicha o’qituvchilik sertifikatini olish mumkin.
- **[Koreys tili ta'limi mutaxassisi]** Ko'p madaniyatli hamdardlik, jamiyatda etakchilik va, globallashuvga hissa qo'shadigan koreys tili va madaniyati bo'yicha mutaxassislarni yetishtirish.
  ※ 2–darajali koreys tili o'qituvchisi litsenziyasini olish mumkin.
- **[Menejment mutaxassisi]** global kompaniyalar tomonidan Koreyada va xorijda talab qilinadigan amaliy biznes mutaxassislarini yetishtirish.
  O'qishni tugatgandan keyingi martaba: mahsulotni rejalashtiruvchi, boshqaruv bo'yicha maslahatchi, jamoatchilik fikrini o'rganish agentligida tadqiqotchi va tahlilchi kabi sohalarda ishlash huquqiga ega bo'ladi





Jang san’ati va xavfsizlik fakulteti

Department of Martial Arts and Security

- Maqsad: Xavfsizlik bo'yicha mutaxassislarni va jang san'atlari rahbarlarini yetishtirish. ※ Koreyada 4 yillik ayollar universitetlari ichida birinchi kafedra tashkil etilgan.
- Amaliy mashg'ulotlar masalan, asosiy jismoniy kuch tayyorlash, jang san'ati ko'nikmalari, xavfsizlik bilimlari, xavfsizlikni qidirish amaliyoti kabi xavfsizlik bo'yicha mutaxassis va jang san'ati bo'yicha yetakchi tayyorlash.

Politsiya boshqarmasi fakulteti

Department of Police Administration

- Maqsad: ayol politsiyachilar va xavfsizlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash.
- Kendo, dzyudo, takvondo va hapkido bilan shug'ullanish uchun maxsus jang san'atlari zalining ishlashi.
- Ish joylarida amaliy treninglari olib borish, katta murabbiylik programlari, mentoring, politsiya imtihoni suhbatlariga tayyorlash.



KWANGJU WOMEN'S UNIVERSITY



Ijtimoiy ta'minot bo'limi

Department of Social Welfare

- Maqsad: xalq farovonligi uchun mas'ul bo'lgan professional ijtimoiy xodimlarni tayyorlash
- Umumiy ijtimoiy ta'minot markazlari, bolalar, yoshlar, nogironlar, qariyalar va ko'p madaniyatli farovonlik kabi sohalarda zarur bo'lgan ijtimoiy ishchi sifatida ishlash.
  Mehnat malakasini mustahkamlash bo'yicha treningni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Maslahat psixologiyasi fakulteti

Department of Counseling and Psychology

- Maqsad: Ushbu sohada talab qilinadigan amaliy maslahat ko'nikmalariga ega psixologik mutaxassislarni tayyorlash.
- O'qishni tugatgandan keyingi martaba: Ko'p madaniyatli markaz, Yoshlar maslahat markazi, Spirtli ichimliklarga qarshi maslahat markazi, Ayollar maslahat markazi, Kollej maslahat markazi, Oiladagi zo'ravonlik bo'yicha maslahat markazlari, individual maslahat markazlari, psixologik testlarni ishlab chiqish va ta'lim muassasalarida ishlash huquqiga ega bo'ladi.





Go'zallik fanlari fakulteti

Department of Beauty department

- Maqsad: teri, soch, bo'yanish, tirnoq san'ati va kosmetika sohalarida mutaxassislarni tarbiyalash
- Koreyaning birinchi 4 yillik go'zallik bo'limi, bakalavriat, magistratura va doktorantura kurslari faoliyat yuritadi
- O'qishni tugatgandan keyingi martaba: [Ta'lim] Go'zallik va kosmetika ta'lim muassasasida o'qituvchi [Muassasalar] Go'zallik saloni, terini parvarish qilish saloni, tirnoq kabi salonlarda ishlash huquqiga ega bo'ladi.
  Bosh terisi va soch to'kilishini boshqarish xonasi, to'y do'koni, kosmetika tadqiqotchisi, parfyumer, kosmetika brendi menejeri bo'lishi mumkin.

Sog'liqni saqlash boshqarmasi

Department of Health and Public Administration

- Maqsad: Milliy salomatlikni mustahkamlash bilan bog'liq sog'liqni saqlash va tibbiyot sanoatida mutaxassislarni rivojlantirish.
- O'qishni tugatgandan keyingi martaba: Sog'liqni saqlash va tibbiy ma'lumot menejeri, shifoxona ma'muri, sog'liqni saqlash muassasasida tadqiqotchi, shifoxona koordinatori bo'lishi mumkin.





Nutq terapiyasi kafedrasi
Department of Language Therapy

- Maqsad: tilni reabilitatsiya qilish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash.
- Muloqotda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar va kattalar uchun muloqot muammolarini tashxislash va baholash.
  Til reabilitatsiyasi uchun ixtisoslashtirilgan treningni amalga oshirish.

Oziq-ovqat va ovqatlanish bo'limi
Department of Food and Nutrition

- Maqsad: dietologlar, ovqatlanish bo'yicha o'qituvchilar (o'rta maktabning ikkinchi sinf o'qituvchilari) va gigienistlar sohasida amaliy mutaxassislarni tayyorlash.
- O'qishni tugatgandan so'ng martaba: umumiy ovqatlanish restorani, oziq-ovqat kompaniyasi, oziq–ovqat xizmati sanoati, tadbirkorlik va boshqalar.





AI konvergentsiyasi fakulteti
Department of AI Convergence

- Maqsad: sun'iy intellekt (AI) va real media (AR, VR) bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarga ega ijodiy ayol mutaxassislarni tayyorlash.
- O'qishni tugatgandan keyingi martaba: katta ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha mutaxassis, AR / VR kontent bo'yicha mutaxassis, kompyuter grafikasi bo'yicha mutaxassis bo'lish.

Ichki arxitektura dizayni fakulteti/Ichki dizayn fakulteti
Department of Interior and Architecture Design / Department of Interior Design

- Maqsad: ichki makon dizaynerlari va ichki makon menejerlarini tayyorlash.
- Materiallar, ranglar, mebellar, yorug'lik, amaliy dizayn va kompyuter ko'nikmalari kabi interyer dizaynining turli yo'nalishlarini bilish.
  Yaxshi jihozlangan professional kosmik dizayner bo'lishga o'rgatish.
- Doimiy martaba rivojlanishi · har yili milliy dizayn tanlovlari va iqtidorli ko'ngillilar faoliyatida ishtirok etishni boshqarish.





Sport fakulteti
Department of Sports

- Maqsad: Ayol sport instruktorlari va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash.
- O'qishni tugatgandan keyingi martaba: hayot sporti o'qituvchisi, yoga · pilates bo'yicha instruktor, reabilitatsiya bo'yicha murabbiy, sport marketologi va boshqalar.

Ⅳ Qabul hujjatlari

○ Topshirish shart / △ Faqat tegishli shaxslargina

Raqam	Kategoriya	Yangi talaba	O'qishni ko'chirmoqchi bo'lgan talaba	Note
1	Ariza shakli	○	○	– Asl nusxasini topshirish – Shaklni yuklash (Xalqaro ta'lim instituti Magistratura materiallar bo'limi) – https://globalgate.kwu.ac.kr/index.do – 「e'lon taxtasi」 kirish– 「E'lonlar」 kirish
2	O'quv rejasi	○	○	
3	O'qish xarajatlarini to'lash haqida yozma xat	○	○	
4	Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, foydalanish va taqdim etishga ruxsat	○	○	
5	Eng oxirgi o'quv dargohidagi tugatganlik(yaqinda tugatishi) haqida hujjat va Transkript	○	○	– Asl nusxasi va tarjima qilingan hujjatni taqdim etish – Taqdim etilishi kerak bo'lgan barcha hujjatlar, masalan, xorijiy universitetni bitirganligi to'g'risidagi guvohnoma va transkript, notarial tasdiqlangan koreyscha tarjimalari bilan birga taqdim etilishi kerak.
6	Ta'lim dargohida ta'lim olayotganligi haqida hujjat	–	△	– Asl nusxasi va tarjima qilingan hujjatni taqdim etish
7	Ta'lim ma'lumoti haqidagi hujjatni quydagi holatlarda tan olinadi	○	○	– Asl nusxasini topshirish – Asosiy shartlar: Adliya vazirligining yo'riqnomasiga ko'ra, kutilayotgan bitiruv guvohnomasi tan olinmaydi. – Asosiy davlatlar • Apostil qo'yish konventsiyasi: Apostil ※ Mo'g'uliston, Yaponiya, Qozog'iston, O'zbekiston va boshqalar.
8	Passport(Agar Koreya ID kartasi bo'lsa uni ham topshirish kerak)	○	○	– Nusxasini taqdim etish
9	Ota-onasining passport nusxasi va tarjima qilingan hujjat	○	○	– Nusxasini taqdim etish
10	Ota-onasining ish joyidan ishlayapti degan hujjat va yillik daromadi ko'rsatilgan hujjat	○	○	– Asl nusxasi va tarjima qilingan hujjatni taqdim etish
11	Bank hisobi haqida hujjat	○	○	– Asl nusxasini taqdim etish(Koreya hisob raqamini taqdimetish) – D2 viza shaxslar uchun hisob raqami miqdori o'rtacha $18,000 bo'lishi kerak ※ Koreyada bo'lgan va D4 vizasiga ega bo'lmagan arizachilar topshirishlari shart emas
12	Ota-onasi bilan qarindoshlik aloqasini isbotlovchi hujjat(Guvohnoma)	△	△	– Oilani ro'yxatga olish kitobi mavjud bo'lsa, oilaviy munosabatlar notarial tasdiqlangan hujjatlar taqdim etilishi kerak(Agar siz ota-onangiz bilan bir uyda yashamasangiz) – Ota-onalar ajrashgan taqdirda, oilaviy munosabatlar to'g'risidagi guvohnoma va ajralish to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasini taqdim etish – Agar ota-ona vafot etgan bo'lsa, o'lim to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasini taqdim eting
13	Rasm 2 ta(rangli)	○	○	– 3 X 4cm (oq rangli fon)
14	Koreys tili sertifikati(TOPIK)	○	○	– Asl nusxasini taqdim etish
15	Koreya ID karta nusxasi	△	△	– Nusxasini taqdim etish (orqi va oldi tomoni)

※ Ushbu universitetda koreys tilini o'qitish kursini tamomlaganlar uchun bakalavriat bosqichiga kirishda 9, 10 va 12-bandlar topshirilmasa ham mumkin.

Ⅴ O’qishga kirish tartibi

1. O’qishga qabul qilish jadvali

Kategoriya	Hijjatlarni qabul qilish muddati	Hujjatlarni ko’rib chiqish muddati	Muvaffaqiyatli nomzodlarni e'lon qilish
Qishki semestr**1**–davr	2022–yil 1-dekabr ~ 2022–yil 23-dekabr	2022–yil 26-ekabr ~ 2023yil 6-yanvar	2023–yil 16-yanvar
Qishki semsetr**2**–davr	2023–yil 16-yanvar ~ 2023–yil 27-yanvar	2023–yil 30-yanvar ~ 2023–yil 3-fevral	2023–yil 13-fevral
Yozgi semestr**1**–davr	2023–yil 12-iyun ~ 2023–yil 23-iyun	2023–yil 26-iyun ~ 2023–yil 7-iyul	2023–yil 17-iyul
Yozgi semestr**2**–davr	2023–yil 17-iyul ~ 2023–yil 21-iyul	2023–yil 24-iyul ~ 2023–yil 28-iyul	2023–yil 7-avgust

2. Hujjatlarni ko'rib chiqish: Qabul qilish to'g'risidagi ariza, akademik sertifikat, diplom / o’qish dargohida ta’lim olayotganligi haqida hujjat, TOPIK baholari va boshqalarni umumiy baholash.
3. Anketani yuklab olish: https://globalgate.kwu.ac.kr/index.do → E’lonlar taxtasi → Xabarnoma → Chet elliklar uchun eslatma

Ⅵ To’lovlar va grantlar haqida

1. To’lov

Yo’nalish kategoriyasi	Fakultet nomi	O’qishga yangi kirgan talaba to’lovi	O’qishni ko’chirmoqchi bo’lgan talaba to’lovi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar	Aviatsiya xizmatlari fakulteti	2,716,000	2,714,000
	Global ingliz tili ta'limi kafedrasi	–	2,714,000
	Koreys tili ta’limi kafedrasi	–	2,714,000
	Xalqaro tadqiqotlar fakulteti	2,716,000	–
	Jang san’ati va xavfsizlik kafedrasi	2,716,000	–
	Politsiya boshqarmasi fakulteti	2,716,000	2,714,000
	Ijtimoiy ta'minot fakulteti	2,716,000	2,714,000
	Maslahat psixologiyasi fakulteti	2,716,000	2,714,000
Tabiiy fanlar	Go‘zallik fanlari fakulteti	3,584,000	3,582,000
	Sog'liqni saqlash boshqarmasi fakulteti	3,213,000	3,211,000
	Nutq terapiyasi fakulteti	3,213,000	3,211,000
	Oziq–ovqat va ovqatlanish fakulteti	3,213,000	3,211,000
	AI konvergentsiyasi fakulteti	3,213,000	–
Sana’t va sport	Ichki arxitektura dizayni fakulteti Ichki dizayn fakulteti	3,213,000	3,211,000
	Sport fakulteti	3,213,000	–

※ Yuqoridagi o'quv to'lovi 2022 o'quv yiliga asoslanadi va qoidalarga muvofiq o'zgarishi mumkin.

2. Grantlar


Kategoriya	Turi	Shartlar	Kriteriy	Grant miqdori
Bakalav talabasi	O'qishga yangi kirgan talaba	Bakalavrga qabul qilinganda TOPIK baliga ega bo'lganlar	TOPIK 3 darajadan past yoki KWU-koreys tili imtihoni	O'qish to'lovining 30%
			TOPIK 3 daraja	O'qish to'lovining 35%
			TOPIK 4 daraja	O'qish to'lovining 50%
			TOPIK 5 daraja	O'qish to'lovining 60%
			TOPIK 6 daraja	O'qish to'lovining 70%
	Ta'lim olayotgan talaba	Yaxshi baholarga ega bo'lgan shaxs (O'tgan semestrning GPA o'rtacha 2,5 yoki undan yuqori)	TOPIK 3 darajadan past	O'qish to'lovining 20%
			TOPIK 3 daraja	O'qish to'lovining 30%
			TOPIK 4 daraja	O'qish to'lovining 50%
			TOPIK 5 daraja	O'qish to'lovining 60%
			TOPIK 6 daraja	O'qish to'lovining 70%

※ Xalqaro talabalar uchun stipendiyalar tegishli qoidalarga muvofiq o'zgartirilishi mumkin.

3. Boshqa imtiyozlar

A. Baxtsiz hodisalardan sug'urta to'lovini qo'llab-quvvatlash: yiliga 99 000 von

B. Yotoqxona to'lovi: Yangi/transfer talabalar birinchi semestr (16 hafta) ozod qilinadi (4 kishilik xona , 464, 000 von)



2023 Semestr Gwangju Ayollar universitetiga

Magistratura darajasi uchun chet ellik talabalarning qabul qilish haqida qo'llanma



Ⅰ Ariza topshirish huquqi haqida

Kategoriya	Ariza topshirish uchun shartlar
Fuqarolik	Ota onasining ikkalasi ham chet ellik bo'lgan shaxs
Ta'lim ma'lumoti	**[Magistr darajasi]** Koreyada yoki xorijda magistr darajasini olganlar yoki 2023-yil fevral oyida bakalavr darajasini olishlari kutilayotgan shaxslar **[Doktor]** Koreyada yoki xorijda magistr darajasini olganlar yoki 2023-yil fevral oyida magistr darajasini olishlari kutilayotgan shaxslar **[Umumiy ma'lumot]** Qonun bo'yicha yuqoridagilarga teng yoki undan yuqori ta'lim ma'lumotga ega deb tan olingan shaxslar
Til qobiliyati	1. Koreys tili(TOPIK)dan 3 darajani olgan shaxs 2. Universitet koreys tili(TOPIK) imtihonidan 3 darajani olgan shaxs

Ⅱ Qabul qilish bo'limi haqida

Yo'nalish	Kategoriya	Fakultet	O'qish muddati	Dars shakli	Qabul soni
Magistr atura	Umumiy oliy ta'lim maktabi	• Go'zallik va sochni parvarish qilish fakulteti • Bolalar ingliz tilini o'qitish fakulteti • Aviatsiya va turizmni rivojlantirish boshqarmasi fakulteti • Oziq-ovqat va ovqatlanish fakulteti	2 yil	Kunduzgi	○○ kishi
	Graduate School of Social Development	• Ijtimoiy ta'minot fakulteti • Politsiya huquq fakulteti	2 yil	Kechgi	○○ kishi
Doktora ntura	Umumiy oliy ta'lim maktabi	• Go'zallik va sochni parvarish qilish • fakulteti	2 yil	Kunduzgi	○○ kishi

KWANGJU WOMEN'S UNIVERSITY

Ⅲ O'qishga kirish tartibi

1. Qabul muddati: Yanvar va iyun oyida
(Batafsil ma'lumot uchun oliy o'quv yurti veb-saytidagi dastur ko'rsatmalariga qarang)

https://graduate.kwu.ac.kr/mod/page/view.do?MID=GRADUATE_C07010101

2. Hujjatlarni ko'rib chiqish: ariza shakli, akademik sertifikat, diplom / O'quv dargohida ta'lim olayotganligi haqida hujjat, koreys tili sertifikati va boshqalarni har tomonlama baholash.

Ⅳ To'lovlar va grantlar haqida

1. To'lov

Kategoriya	Yo'nalish kategoriyasi	Fakultetlar nomi	T'lov (von)	Qabul to'lovi	Jami (von)
Magist ratura	Umumiy oliy ta'lim maktabi	Go'zallik va sochni parvarish qilish fakulteti	4,040,000	50,000von	4,090,000
		Bolalar ingliz tilini o'qitish fakulteti	3,390,000		3,440,000
		Aviatsiya va turizmni rivojlantirish boshqarmasi fakulteti	3,390,000		3,440,000
		Oziq-ovqat va ovqatlanish fakulteti	4,040,000		4,090,000
	Ijtimoiy rivojlanish oliy maktabi	Ijtimoiy ta'minot fakulteti	3,129,000		3,179,000
		Politsiya huquqi fakulteti	3,129,000		3,179,000
Doktor antura	Umumiy oliy ta'lim maktabi	Go'zallik va sochni parvarish qilish fakulteti	5,139,000		5,189,000

2. Grantlar

Kategoriya	Yotoqxona to'lovi	Boshqa punktlar
TOPIK 3 darajasi	To'lovning 40% stipendiya sifatida taqdim	Faqat universitet koreys tili sertifikati yoki Xalqaro Ta'lim Milliy Instituti tomonidan boshqariladigan TOPIK sertifikati tan olinadi
TOPIK 4 darajasidan ayuqori	To'lovning 50% stipendiya sifatida taqdim	

Ⅴ Mutahassislik haqida



Go’zallik va sochni parvarish qilish fakulteti magistratura va doktorantura bo’limi

Master's/Doctoral course

Go’zallik va sochni parvarish qilish fakulteti tizimli nazariy ta'lim va go’zallikni parvarish qilish joylarida go'zallik texnologiyasi bo'yicha ta'lim olib boradi. Nazariya va go'zallik texnologiyasini uyg'unlashtirib, go'zallik ta'limi sohasida malakali o'qituvchilarni va soch, terini parvarish qilish, bo'yanish, tirnoq va kosmetika sohalarida mutaxassislarni tayyorlaydi. 2002–yilda Go’zallik va sochni parvarish qilish fakulteti tashkil etilganidan buyon 2007–yilda umumta’lim doktoranturasida “Go‘zallik fanlari” kafedrasi magistratura va doktorantura kurslarini ochdi va sof go'zallik fanlari sohasida akademik tizimni mustahkamlovchi ixtisoslashtirilgan doktorantura sifatida qayta tug‘ildi.

Talaba soch go'zalligi, terining go'zalligi, bo'yanish va kosmetikadan iborat o'quv dasturini yakunlaydi, va go'zallik bilan bog'liq institutlar va sanoat–universitet hamkorligi, go'zallik tadqiqot institutlari va klinik teri tadqiqotlari orqali go'zallik bilan bog'liq tadqiqot va ta'lim bilan bog'liq tadqiqot va loyihalarni amalga oshiradi. U go'zallik tajribasi va izlanish qobiliyatini rivojlantiradigan, badiiy ijodkorlikni yaratadigan va go'zallik sohasida tadqiqot va badiiy ijod bilan shug'ullana oladigan go'zallik mutaxassislari va rahbarlarini tarbiyalaydigan ta'lim tizimini yaratadi.

Doctoral degree

Bolalar ingliz tilini o'qitish fakulteti magistratura bo’limi



Bolalar ingliz tilini o'qitish fakulteti chaqaloqlar va boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun ingliz tilini o'qitish nazariyasi va metodologiyasini o'rganadigan sohadir. Til, kognitiv va hissiy rivojlanishning muhim bosqichida bo'lgan bolalarning xususiyatlari va darajasini tushunadigan va ingliz tilidagi ta'limni to'g'ri yo'naltira oladigan bolalar uchun ingliz tili ta'limi mutaxassislarini tayyorlaydi. Fakultetning maqsadi ingliz tilini yoshligida xalqaro til sifatida oson egallash xususiyatlaridan foydalangan holda, tizimli va ilmiy ta’lim dasturi orqali bolalarning ingliz tilini o'qitish, o'qitish tartiblari, o'qitish texnikasi, turli tadbirlar va amaliy o‘qitish rejalariga yondashuvni qo‘llay oladigan malakali bolalar ingliz tili o'qituvchilarni o’qitish, axborot–kommunikatsiya(AKT) muhitiga mos ingliz tili ta'limi mazmunini ishlab chiqish, ingliz tilini o'rgatish va o'rganish bo'yicha malakali bolalar ingliz tili ta'limi mutaxassislarini tayyorlash, shuningdek, soha o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishdadir.



Aviatsiya va turizmni rivojlantirish boshqarmasi fakulteti magistratura bo’limi

Master's Programs

Aviatsiya va turizmni rivojlantirish boshqarmasi fakulteti umumiy jamiyat va mintaqaviy turizmning rivojlanishi haqida xabardorlikni qayta tashkil etish, mahalliylashtirish davrining rivojlanishi, turizmni rivojlantirish va turizmni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishni oshirishga muvofiq, mintaqaviy turizmni jonlantiradigan va ijodiy turizm rivojlanishining globallashuviga rahbarlik qiladigan mahalliy turizmni rivojlantirish bo'yicha mutaxassislarni o’qitadi. Turizmni ishlab chiquvchilarning roli. Kurslarga ega bo'lim sifatida turizm sohasida milliy va mahalliy hukumat amaldorlari va xususiy tadqiqotchilar, konsalting kompaniyalari, muhandislik kompaniyalari, kurortlar va dam olish korxonalari, sayyohlik agentliklari va mehmonxonalar kabi turli sohalarga kirish mumkin. mintaqaviy va kelajakda turizmni rivojlantirish bilan bog'liq. Rejalashtirish, foydalanish va boshqarish rolini o'ynay oladigan mutaxassislarni tarbiyalash uchun turizmni rivojlantirish bo'yicha fanlar o'qitiladi va tadqiq qilinadi.

KWANGJU WOMEN'S UNIVERSITY



Oziq-ovqat va ovqatlanish fakulteti magistratura bo'limi

Master's course

Oziq–ovqat va ovqatlanish fakulteti oziq–ovqat sanoatida optimal amaliy ijodiy iste'dodlarni (jami menejerlar) rivojlantiradigan, Fun & Creative(Qiziqarli va ijodiy) bilan shug'ullanadigan va oziq–ovqat + ovqatlanish bo'yicha mutaxassislikni amalga oshirishga qodir professorlar va tajriba/amaliy infratuzilmaga ega bo'lgan fakultetdir. Gigienist, oziq–ovqat muhandisi, oziq–ovqat sanoati muhandisi, qishloq xo'jaligi(suv chorvachiligi) oziq–ovqat mahsulotlarini qayta ishlash muhandisi, oshpaz, bolalar ovqat pishirish bo'yicha o'qituvchi, ovqatlanish odatlari bo'yicha murabbiy, kimchi bo'yicha o'qituvchi, koreys taomlari menyusini ishlab chiquvchi, Namdo oziq–ovqat madaniyati sharhlovchisi, spirtlik ishimligini tayyorlashga ixtisoslashgan kishi, qandolatchi, novvoy, savdo menejeri, franchayzi treyderlar va nazoratchilar kabi litsenziyalarni olishingiz mumkindir.

Master's course

Ijtimoiy ta'minot fakulteti magistratura bo'limi



Ijtimoiy ta'minot fakulteti barcha odamlarning baxti va hayot sifatini yaxshilash uchun muammolarga duch kelgan shaxslarga, oilalarga, guruhlarga va mahalliy jamoalarga zarur yordam ko'rsatadigan mutaxassislarni tayyorlaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy ta'minot bo'yicha mutaxassis sifatidagi rol va mas'uliyatni bajarish uchun turli xil o'quv jarayonlari, masalan, professional yordam faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ta'minot amaliyoti ko'nikmalari, ijtimoiy ta'minot tizimi va siyosat nazariyasi, tadqiqot metodologiyasi va jamoa sohasida amaliy ta'lim. amaliyot va boshqalar. Bunga parallel ravishda biz ijtimoiy farovonlik nazariyasi va haqiqiy klinik ta'lim orqali professional ijtimoiy ta'minot ishchi kuchini ishlab chiqaradi.



Politsiya huquq fakulteti magistratura bo'limi

Master's course

Politsiya huquq fakulteti ayol politsiyachi va ayol askarlarni tayyorlaydigan yagona bo'lim sifatida u dala mashg'ulotlari va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirgan holda davlat lavozimlariga kirishga qaratilgan talabalarni tayyorlaydi. Politsiya qonunchiligi oliy maktabi professional politsiya xodimi sifatida keng ko'lamli ta'limni muntazam ravishda egallash orqali odamlarning hayoti va mulki, jamoat xavfsizligi va tartibi uchun mas'ul bo'lgan kelajakka yo'naltirilgan va ijodiy politsiya ixtisosligi va politsiya rahbarlarini rivojlantirishga qaratilgan. Keng qamrovli va chuqur kasbiy bilimlarga ega bo'lish, tizimli tadqiqotlar olib borish bundan tashqari, yong'inga qarshi ma'muriyat, axloq tuzatish ma'muriyati va umumiy politsiya ma'muriyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa maxsus loyiha politsiyasi sohalarida ish samaradorligi va ixtisoslashuvini oshirish bo'yicha tadqiqotlar uchun zamin tayyorlaydi.

※ Abituriyentlar uchun ehtiyot choralari

1. Abituriyentlar uchun ehtiyot choralari

a. Ariza hujjatlari qalbaki yoki qalbakilashtirilganligi hamda qabul noqonuniy ravishda amalga oshirilganligi aniqlansa, qabul bekor qilinadi.
b. Qabul qilish bo'yicha ko'rsatmalarda ko'rsatilmagan masalalar bo'lsa universitet qoidalari va nizomlariga bo'ysunadi.
c. Hujjatlarni topshirmagan yoki talabnoma talablariga javob bermaydigan talabalar diskvalifikatsiya qilinadi.
d. Taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi
– Barcha hujjatlar printsipial ravishda topshirilishi kerak, lekin agar nusxasi muqarrar ravishda taqdim etilsa, taqqoslash uchun asl nusxasi keltirilishi kerak yoki asl nusxasi qabul qilingandan keyin taqdim etilishi kerak (asl nusxasi tekshirilgandan keyin qaytariladi).

2. Anketa va o'zini tanishtirish xatini to'ldirishda e'tiborga olish kerak bo'lgan narsalar

a. Barcha hujjatlar asl nusxada topshirilishi kerak, koreys yoki ingliz tilida yozilmagan hujjatlar koreys tilida yozilishi kerak .Yoki ingliz tiliga tarjimasi ilova qilinishi kerak
b. Barcha yozuvlar to'g'ri kiritilishi kerak va kiritish xatolari, kamchiliklar yoki matn terish xatolaridan kelib chiqqan har qanday xatolar va kamchiliklar uchun javobgarlik arizachiga yuklanadi.
c. Ariza topshirish vaqtida taqdim etilgan barcha hujjatlar qaytarilmaydi, va agar kerak bo'lsa, qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.
d. Taqdim etilgan ariza shaklini o'zgartirish yoki bekor qilish mumkin emas.

3. Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish

a. Shaxsiy ma'lumotlar to'planishi va o'qishga kirish uchun quyidagi tarzda ishlatilishi mumkin:
b. Nomzod haqida ma'lumot: ism, manzil, (mobil) telefon raqami, elektron pochta manzili, talaba yozuvlari, bitiruv (kutilayotgan haqida ma'lumot) yili, hisob ma'lumotlari va boshqalar.)
c. Vasiylik haqidagi ma'lumotlar: ism, aloqa, manzil, (mobil) telefon raqami va boshqalar.
d. O'qish haqida ma'lumot: O'qish dargohi nomi
e. Yig'ilgan shaxsiy ma'lumotlardan universitetga kirish, grantlar, bakalavriat o'qishlari, statistik ishlar va universitet tomonidan taqdim etilgan boshqa ma'lumotlardan boshqa maqsadda foydalanilmaydi. Shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilinadi.
f. Tafsilotlar uchun ariza hujjatlaridagi "Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, foydalanish va taqdim etishga rozilik" bo'limiga qarang.

※ Universitet korpusi xaritasi



1 1 bino: Mutinggvan
2 2 bino: Hvangnyonggvan
3 3 bino: Otinggvan
4 4 bino: Axborot kommunikatsiya markazi
5 Universitet bosh qarorgohi
6 Kutubxona
7 O'yin maydonchasi
8 Yotoqxona(Song Gang Hak-suk)
9 Sport zali(Universiada sport zali)



Aloqa ma'lumotlari

주 소 (우편번호)62396, 광주광역시 광산구 광주여대길 22
광주여자대학교 국제교육원

Address (Zip code)62396, International Education Center, 22
Gwangju yeodae-gil, Gwangsan-gu, Gwangju, KOREA

Email kwuiec@kwu.ac.kr
Tel +82-62-950-3931
+82-62-950-3576

광주여자대학교
KWANGJU WOMEN'S UNIVERSITY